

## Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar–sentabr, dastlabki ma'lumot)

2021- yil yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) **2647,4** ming so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **12,4** % ga oshdi.

## Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad

(2021- yil yanvar-sentabr; qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad, mlrd.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
<b>Jami:</b>	<b>3720</b>	<b>149 481</b>	<b>3 561,6</b>	<b>2 647,4</b>
shu jumladan:				
Sanoat	36	13 881	509,7	4 079,7
Qurilish	8	2 069	52,9	2 841,1
Savdo	11	1 644	35,6	2 405,4
Tashish va saqlash	7	7 062	235,8	3 709,5
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	8	83	1,7	2 296,9
Axborot va aloqa	39	1 186	29,4	2 756,4
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	78	2 888	159,8	6 146,5
Ta‘lim	1682	72 396	1 379,1	2 116,6
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	98	24 780	506,5	2 270,9
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	164	2 649	49,8	2 089,5
Boshqa faoliyat turlari	1589	20 843	601,3	2 827,2



## Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-sentabr, kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



### Maktabgacha ta'lim sohasi



1 202,5 ming so'm

### Umumiy o'rta ta'lim sohasi



2 094,3 ming so'm

### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



2 116,6 ming so'm

### O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim sohasi



1 749,2 ming so'm

### Oliy ta'lim sohasi



4 392,5 ming so'm

Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2116,6** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **12,3** % ga oshgan.




## Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-sentabr, kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Ta'lim sohasi bo'yicha qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Nukus shahri - **130,1** %, Ellikqal'a tumani - **106,7** va Kegeyli tumani - **106,6** % hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, 14 ta hududda ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Mo'ynoq tumani - **81,5** %, Nukus tumani - **81,3** %, Bo'zatov tumani - **79,0** % hamda Qorao'zak tumani - **77,1** % hissasiga to'g'ri kelgan.


O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda





## Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-sentabr, kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)



Sanoat sohasida **36** ta korxonada **13 881** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **9,3** % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **509,7** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi **14,3** %ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **4 079,7** ming so'mni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan **12,9** % ga o'sdi.

Sanoat sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **8 600,6** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **2,1** barobarga yuqori) va Taxiato'sh tumanida **4 294,4** ming so'mni (**105,2** %) tashkil etgan bo'lsa, Chimboy tumanida **1 228,9** ming so'mni (**30,1** %), Kegeyli tumanida **1 317,8** ming so'mni (**32,3** %), Qonliko'l tumanida **1 538,6** ming so'mni (**37,7** %) va Beruniy tumanida **1 623,3** ming so'mni (**39,8** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.




## Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-sentabr, kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik ish haqi,  
ming so'mda




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Taxtako'pir tumani - **116,1 %**, Chimboy tumani - **110,8 %**, Xo'jayli tumani - **108,7 %** hamda Qonliko'l tumani - **107,9 %** hissasiga to'g'ri kelmoqda

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi respublikaning 11 ta tumanida respublikadagi o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Bo'zatov tumani - **75,7 %**, Taxiatosh tumani - **86,5 %**, Shumanay tumani - **89,2 %** hamda Ellikqal'a tumani - **92,6 %** hissasiga to'g'ri kelgan.


O'rtacha oylik ish haqi,  
ming so'mda





## Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-sentabr, kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turida **78** ta muassasada **2 888** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,9 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **159,8** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,5% ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **6 146,5** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **24,5** %ga o'sdi.

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **7 123,3** ming so'mni (Qoraqalpog'iston Respublikasidagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **115,9%**) tashkil etgan bo'lsa, Qorao'zak tumanida **4 224,9** ming so'mni (**68,8%**), Taxiato'sh tumanida **4 275,5** ming so'mni (**69,6%**) va Amudaryo tumanida **4 808,4** ming so'mni (**78,3%**) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



## O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, % da)



Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 2021- yil yanvar-sentabr oylarida 2020- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida **24,5** % ga, qurilish sohasida **16,5** % ga, axborot va aloqada **13,9** % ga, sanoat sohasida **12,9** % ga, ta'limda **12,3** % ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda **10,2** % ga, savdoda **8,9** % ga hamda tashish va saqlash sohasida **6,2** % ga o'sganligini kuzatish mumkin.



## Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-sentabr, respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **3 505,5** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **132,4** %), Qo'ng'iro't tumanida **3 046,3** ming so'mni (**115,1** %) va Taxiatosh tumanida **2 933,3** ming so'mni (**110,8** %) tashkil etgan bo'lsa, Bo'zatov tumanida **1 810,5** ming so'mni (**68,4** %), Qorao'zak tumanida **1 920,7** ming so'mni (**72,6** %) va Beruniy tumanida **1 966,9** ming so'mni (**74,3** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

### Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(yanvar-sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik  
tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2 356,3</b>	<b>2 647,4</b>	<b>112,4</b>
Nukus shahri	2 988,2	3 505,5	117,3
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	1 757,4	1 973,5	112,3
Beruniy	1 718,8	1 966,9	114,4
Bo'zatov	1 724,6	1 810,5	105,0
Qorao'zak	1 861,1	1 920,7	103,2
Kegeyli	1 940,9	2 267,9	116,8
Qo'ng'iro't	2 840,6	3 046,3	107,2
Qonliko'l	1 805,4	2 103,2	116,5
Mo'ynoq	1 855,3	1 993,4	107,4
Nukus	2 292,3	2 314,6	101,0
Taxiatosh	2 397,2	2 933,3	122,4
Taxtako'pir	1 787,7	2 118,3	118,5
To'rtko'l	1 884,5	2 162,1	114,7
Xo'jayli	2 041,0	2 219,3	108,7
Chimboy	1 949,1	2 156,7	110,7
Shumanay	2 373,4	2 128,1	89,7
Ellikqal'a	1 994,1	2 249,6	112,8



## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.08.2021- yildagi "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi PF-6279-sonli Farmoniga muvofiq, 2021- yilning 1- sentabridan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori **822 000** so'mni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

***Qoraqalpog'iston Respublikasi  
statistika boshqarmasining  
Demografiya va mehnat statistikasi  
bo'limi  
Tel: (61) 224-92-17 (61) 222-76-57***